<sup>25</sup> Bates H.E. English Short Stories of the 20<sup>th</sup> Century. – Москва: Радуга, 1988. – P. 36.

<sup>26</sup> Bates H.E. English Short Stories of the 20<sup>th</sup> Century. – Москва: Радуга, 1988. – P. 36.

<sup>27</sup> Shu yerda, P. 69.

<sup>28</sup> Фрэй Д.Н. Как написать гениальный роман. – СПб.: Амфора, 2005. – С. 46.

tavirlagan holda, balki uning yaqin qurshovidagi obrazlar, unga tegishli narsalar orqali ham ochib beradi. O'quvchi qahramon xarakteri haqida uning harakatlari, harakatlanishlarini o'rganish, boshqa qahramonlar bilan o'zaro munosabatlari yoki o'ziga bo'lgan munosabatini tahlil qilish orqali biladi. Beyts qahramonning fikrlari va harakatlariga alohida e'tibor beradi. Masalan, "Beauty of the dead" ("O'liklarning go'zali") asarida bosh qahramon Grimsho kasal xotinining o'lim oldi azoblari haqida o'ylamaydi, balki turmushdagi qashshoqlik va o'ta kambag'allikka qaramay, ular ko'p yillar davomida birga to'plagan mebel va idishlardan zavqlanadi:

*As Grimshaw looked at her, a small meek-eyed woman with high blood pressure that showed in the sharp color of her face and rootlike veins of her hand, his eyes dwelt on the bed too. To Grimshaw's way of thinking the mahogany itself, deep as burgundy, gave out enough fire to keep the freezing room warm. It was a very beautiful piece, the finest piece he had. Yes, it was very beautiful...*<sup>29</sup>.

L.A.Yurkinaning yozishicha, badiiy obraz har doim ham insonning umumlashtirilgan, muayyan obraz sifatida gavalantirilgan tasviri emas, ko'pincha badiiy asarda ma'lum bir shaxsni tasvirlash orqali butun bir avlod yoki ma'lum bir jamiyatning yig'ma obrazi yaratiladi<sup>30</sup>. Adabiy asarda asosiysi fikrlar emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi bo'lib, o'quvchi badiiy matnni o'qiy olish qobiliyatidan iborat bo'lgan g'oyalarning o'zaro bog'liqlik labirintini to'g'ri talqin qilishi kerak<sup>31</sup>. J.P.Sartrning so'zlariga ko'ra, matnning tuzilishi yozuvchi o'quvchiga taqdim etishi kerak bo'lgan ma'lum bir falsafa yoki g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lgandagina asarda estetik zavqqa erishish mumkin<sup>32</sup>.

Gerbert Beytsning hikoyalarda insoniy o'zaro munosabatlar falsafasining aks ettirilishi haqida gapirganda, muallif sof, halol, olijanob insonni ulug'lashini va ma'naviyatsizlik, beadablik va manfaatparastlikni masxara qilishini ko'rish mumkin. Beyts o'z asarlarida jamiyat, atrof-muhit va insonning uning zararli ta'siriga qarshi turishni istamasligi bilan bog'liq bo'lgan inson qalbini ranjitivchi sabablarni ko'rsatadi. Ko'pgina hikoyalarda qahramonlarning hayoti tashvishlar va kundalik mayda-chuyda narsalarda ularning yonidan o'tib ketganida, inson qurshovining ta'siri ostida shaxsning tanazzulga uchrashi mavzusi ochib beriladi.

Beytsning asarlarida kundalik voqealar prizmasi orqali ijobiy shaxslararo munosabatlar yaxshi ochib beriladi. Hammasidan ko'ra, muallif ko'proq sevgi haqida bir-biriga nisbatan yuqori hissiy ijobiy baho berishda ifodalanadigan shaxsiy o'zaro munosabatlarning eng murakkab ko'rinishi sifatida gapiradi. Sevgi nafaqat qarama-qarshi jinsga, balki ota-ona, bolalar, boshqa oila a'zolari bilan munosabatlarda, shuningdek, jonsiz predmetlarga (Vatanga, sevimli mashg'ulotga va hokazolarga) bo'lgan munosabatda ham ifodalanadi. Beytsning ko'pgina asarlari sevgi mavzusiga bag'ishlangan.

<sup>29</sup> Bates H.E. English Short Stories of the 20<sup>th</sup> Century. – Москва: Радуга, 1988. – P. 48.

<sup>30</sup> Юркина Л.А. Литературное произведение: основные понятия и термины. – Москва: Высшая школа, Академия, 2005. – С. 68.

<sup>31</sup> Николаев А.И. Основы литературоведения: учебное пособие для студентов филологических специальностей. – Иваново: ЛИСТОС, 2011. – С. 270.

<sup>32</sup> Сартр Ж. П. Первичное отношение к другому: любовь, язык, мазохизм // Проблема человека в западной философии. – Москва, 1988. – С. 53.

Gerbert Beytsning asarlarida alohida e'tibor beriladigan keyingi aspekt – bu do'stlik konseptidir. U, birinchi navbatda, hamjihatlik, ishonch, o'zaro yordam, o'zaro manfaat, samimiylik va hissiyotlarning beg'arazligini anglatadi. Muallif ushbu konsept va uning o'z qahramonlari hayotidagi ahamiyatiga “The Four beauty”, “The Purple Plain” va boshqa bir necha asarlarni bag'ishlaydi.

Sevgi va do'stlik kabi tuyg'ularga mos kelmaydigan insonga xos bo'lgan yana bir xislat – bu inson munosabatlarini buzadigan xudbinlikdir. Mutlaq xudbinlik muallif tomonidan o'choqni yoqishni istamaydigan yoki o'layotgan xotiniga hamshira chaqirishni istamaydigan kekxa duradgor Grimshoning tavsifida ochib berilgan, negaki bu uning tinchligi va shaxsiy makonini buzadi. Xudbinning yana bir “namunasi” deb Pelgreyv xonimni atash mumkin. U faqat o'zining xotirjamligi, tashqi ko'rinishi haqida shunchalar qayg'uradiki, hattoki bolasini yoniga yaqin yo'latishni xohlamaydi:

*Oh, go away. Your hands are simply filthy”<sup>33</sup>.*

Beytsning asarlarida boshqa salbiy shaxslararo munosabatlar ochib berilgan bo'lib, ular qahramonlarning boshqa tirik mavjudotlarga qo'pol munosabati va muomalasi bilan namoyon bo'ladigan besabab, salbiy xatti-harakatlari, boshqalarga nisbatan salbiy munosabati, tajovuzkorligi, shafqatsizligi bilan ifodalanadi. “The Daffodil sky” – “Nargislar osmoni” asari misolida insonning jamiyatdagi yolg'izligi mavzusini olaylik. Yolg'izlik va begonalashuv – hikoyaning markaziy mavzulari bo'lib, ularning ahamiyati syujet rivojlanib borishi bilan ortadi.

Yuqorida keltirilgan misollarni umumlashtirib, Gerbert Beytsning ijodi turli xil lingvofalsafiy g'oyalar konseptlarini birlashtirgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Beytsning qahramonlari kuchli va ma'naviy jihatdan boy yoki irodasiz va tor fikrlaydigan bo'lishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“G.Beytsning asarlarida insoniy qadriyatlarni pragmatik-uslubiy tasvirlash vositalari va ularni tarjima matnlarida uzatish usullari”** deb nomlangan uchinchi bobida G.Beytsning “A Christmas Song”, “The Beauty of the Dead” va “How vainly men themselves amaze” hikoyalarining asl nusxa va tarjimalarida insoniy qadriyatlarni pragmatik-uslubiy tasvirlash vositalari o'rganilgan hamda uning asarlarini tarjima qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

“The Christmas Song” hikoyasida syujet mavjud emas, negaki hikoya ayol qahramonning hissiy holati va kayfiyatiga qaratilgan. Hikoyaning o'zi ko'proq xomaki rasimga o'xshaydi – provinsial shaharchada yosh ashula o'qituvchisi yashaydi. Bu ayol qahramon hayotidan faqatgina bir kundir, ammo Beyts hikoyaning syujetini shunday qurganki, biz Klara haqida ko'p narsalarni bilib olamiz. Hikoyaning boshida monotonlik va mungli kayfiyat katta hajmli gaplar, qora bo'yoqlar va yomg'irni vujudga keltiradi. Kayfiyat – G.E.Beyts qisqa hikoyalarining eng muhim tashkil etuvchilaridan biridir. Muallif qahramonlarning ichki dunyosini ularning dunyoni his qilishi orqali diqqat bilan ko'chirib oladi.

---

<sup>33</sup> Bates H.E. The best of the Bates. – Forgotten Books, 2017. – P. 125.

Shuni ham ta'kidlash muhimki, mazkur parchani tarjima qilishda tarjimon M.Zinde asl nusxadan chetga chiqishga yo'l qo'yadi – u tubdan bo'lmasa ham, qissani o'zgartiradigan tafsilotlarni tushirib qoldiradi:

«*Instead... she spent long hours selling jazz sheet music to factory workers and earned her reward, at last, on Christmas Eve, by being bored at the Williamson's party*»<sup>34</sup>. «Va ....-ning o'rniga... u ishchilarga jazz plastinkalarini sotib uzoq vaqt peshtaxta ortida turar edi, kechqurun esa Uilyamsonlarning ziyofatida zerikib o'tirar edi»<sup>35</sup>. Asl nusxada muallifning achchiq istehzosi yaqqol seziladi – «*earned her reward, at last, on Christmas Eve*» («va nihoyat, Rojdestvo arafasida o'ziga mukofot ishlar edi...») (U.M.Abduvaxabova tarjimasi). Tarjimon ushbu tafsilotni tushirib qoldiradi va neytral tafsilotga umumlashtiradi: “kechqurun esa Uilyamsonlarning ziyofatida zerikib o'tirar edi”. Bundan tashqari, “*Christmas Eve*” - payt holining yo'qligi o'quvchini Klara Uilyamsonlar uyida tez-tez mehmon bo'lgan, degan fikrga olib keladi, bu uning tabiati va asl nusxasiga butunlay zid keladi.

Klara ma'lum iste'dodlarga ega edi, lekin u ularni yo rivojlantirishni xohlamadi, yo rivojlantira olmadi. Uning uchun musiqa – birdan-bir maqsad emas, aksincha ruhiy holatdir; o'quvchilar bilan mashg'ulotlar esa – mumtoz musiqa emas, balki zamonaviy jazz musiqasi qadrlanadigan haqiqiy dunyodan qochishga urinishdir: “*It's probably a Danny Kaue. It always is*” – “Aftidan, yana Denni Key bo'lsa kerak. Hamma faqat uni so'ramoqda”. Yuqorida keltirilgan parchani tarjima qilishda M.Zinde antonimik tarjimadan foydalanadi – “many” so'zini u ma'no jihatdan asl nusxasiga yaqin bo'lgan “ko'proq” deb tarjima qiladi, biroq, “-roq” qo'shimchasi “many” tasdiqlovchini bir oz kamaytirib ko'rsatmaydi. Shunga qaramay, bu “porlagan” (“*were afterwards very successful*”) fe'lidan foydalanish bilan biroz qoplanadi, u o'zining hissiy ekspressivligi bilan “katta muvaffaqiyalarga erishishgan”ga qaraganda ancha ta'sirliroq.

Klara orqali muallif “yuqori sinf” deb atalmish tabaqa vakillariga o'z munosabatini bildiradigan parcha yetarlicha istehzolidir. Ular uchun bunday o'tirishlar odatiy vaqt o'tkazish edi, negaki muallif Uilyamsonlar oilasi yiliga bir necha marta bunday o'tirishlarni tashkil qilishni yaxshi ko'rishardi, deb aytadi – “*They were fond of giving parties several times a year*”. Biroq, tarjimada “were fond of” yo'q, bu bilan Uilyamson oilasini, ular orqali esa butun jamiyatni ushbu xarakteristikasiz qoldiradi (negaki ular ham parchada gap borayotgan elitaga mansub edilar).

Bundan tashqari, (“*Mrs. Williamson grew rowdy and began rushing from room to room making love to other men*” parchasidagi) “rush” (oshiqmoq, yeldek uchmoq, yeldek yugurmoq, tashlanmoq) fe'li to'g'ridan-to'g'ri “tentiramoq” (“Yarim tunga kelib Uilyamson xonim g'alati qiliqlarni boshlardi va xonadan xonaga tentirab yurib, ketma-ket barcha erkaklarga yopishardi”) fe'lga qarama-qarshi bo'lgan. Bu holda, muallif, “elita” jamiyatining rasm-rusumlarini yanada masxara qilgan holda Uilyamson xonimning shiddatini atayin ta'kidlaydi.

<sup>34</sup> Bates H.E. Picnic. – Moscow: Izvestiya, 1990. – P. 57.

<sup>35</sup> Бейтс Герберт. «Пикник» // Избранные рассказы. – Москва: Известия, 1990. – С. 36.

Har qanday qahramon obrazini yaratishda nutqiy xususiyatlar juda muhim. Novellada Freddi Uilyamsonni tasvirlashda Beyts “*bawl*” (baqirmoq, qichqirmoq) fe’li bilan foydalanadi. Tarjimada esa ushbu fe’l asl nusxada mavjud bo’lgan o’sha “salbiy” ma’noni yetkazmaydigan “shang’illamoq” – “... u shang’illardi ...” fe’li bilan almashtiriladi.

Muallif tomonidan asl nusxada qo’llanilgan hamda tarjimada berilgan stilistik va lingvistik vositalarni tahlil qilish natijalarimizni quyidagi 1-jadvalda aks ettirish mumkin.

Ushbu hisob-kitoblardan ko’rinib turibdiki, ba’zi hollarda, xususan, epitetlarni tarjima qilishda tarjimon lingvistik ekspressivlik darajasini saqlab qolgan holda, asl matnning ma’nosini yetkazishga muvaffaq bo’lgan badiiy tarjima yordamida asl nusxaning pragmatik imkoniyatlarini saqlab qolgan.

Shunday qilib, Beytsning hikoyalarida hech narsa tasodifiy emas: har bir, hatto ahamiyatsiz bo’lgan obraz ham funksiyaga ega, har bir rang – o’zining ramziy ma’nosiga ega, har bir harakat – o’ziga xos xususiyatiga ega. Asarning bor obrazli kuchiga ega bo’lgan uslubiy vositalarni tarjima qilish ko’pincha turli tillarning, uslubiy tizimlarning milliy o’ziga xosliklari tufayli tarjimonlarda qiyinchiliklar tug’diradi. Shunga qaramay, hattoki usul shaklidan kichik chetlanishlar ham o’zgarishlarga olib keladi, ular bir-birining ustiga tizilgan holda, ingliz tilida so’zlashadigan hamda rus tilida so’zlashadigan o’quvchilar (bizning holimizda) matnni boshqacha qabul qilishlariga olib keladi, negaki urg’ular o’zgaradi, demakki, obrazlilik ham o’zgaradi.

## 1-jadval

### «Christmas song» «Rojdestvo qo’shig’i»

Til vositalari	Asl nusxadagi miqdor	Tarjimadagi miqdor	Misol
<b>Antiteza</b>	18	14	<i>Klara va uning singlisi, Freddi va xaridor, qahramon kutgan yangi yil qorlari va zerikarli yomg’ir</i>
<b>Tashxis</b>	20	16	« <i>It lifted up the ... shops – do’konlari tekislandi</i> », « <i>it even gave importance to the stuffy gauze-windowed club – zerikarli klub muhim ekanligini isbotladi</i> »
<b>Vulgarizmlar</b>	3	5	<i>Damn cool! I’d have told him to go to hell. – Men uni do’zaxga yuborardim! Beadab!</i>
<b>Giperbola</b>	5	4	<i>enormous feet, enormous lips – ulkan oyoqlar, katta lablar</i>
<b>Epitetlar</b>	16	16	<i>delicate drops-melkie kapli, deep blue air – quyuq ko’k zulmat, she was brilliant – u iste’dodli edi</i>
<b>Takrorlar</b>	14	19	<i>She gave lessons in the long room..., she herself had won many examinations...she sung few songs – U uzun xonada dars berdi..., u ko’plab g’alabalarni qo’lga kiritishga muvaffaq bo’ldi... u bir nechta qo’shiqlarni kuyladi....she did not sing, she had never passed an examination, she had a</i>

			<i>character like a chameleon – uning singlisi qo‘shiq aytmadi, hech qanday musobaqada g‘olib chiqmadi... uning tabiati xameleon edi</i>
--	--	--	--

G.Beytsning “The Beauty of the Dead” novellasi avvalgisi kabi syujetsizdir. Novella bir juftlik hayotining o‘ziga xos “parcha”, bir kuni bo‘lib, uning prizmasi orqali biz er-xotin Grimsholarni bilib olamiz. Ular garchi yosh, uzoq turmush qurmagan bo‘lsalar ham, qirq yil davomida yashab kelgan ulkan uyda yolg‘iz yashaydilar va asta-sekin juda ko‘p, faqatgina tilsiz nasl – mebellar bilan qoplanib ketishgan. Ularning barcha pullarini mebel olardi ham va berardi ham. Dastlab Grimsho biroz duradgorlik bilan shug‘ullanar edi – kechalari bilan buyurtmachilar uchun ba‘zi mebellarni ta‘mirlab qo‘shimcha pul ishlardi. Asta-sekin mebel uni butunlay egallab oladi, uni mastlik singari so‘rib oladi va u yerda butun vujudini qamrab oladigan ehtirosga aylanadi”<sup>36</sup>.

Hikoyaning boshidanoq, hatto nomlanishida ham Beyts “dead”, “deadened”, “dying” sifatlarini bir necha bor takrorlaydi. Ular odamlar dunyosidan tashqarida yashaydi, aniqrog‘i, mavjud, odatda odamga xos bo‘lgan his-tuyg‘ular va istaklar ular uchun begona, Grimsholarning qalbi qurib ketgan, o‘lgan.

Mazkur novella tarjimasini tahlil qilar ekanmiz, biz, avvalo, tarjimonning qissani rang-barang qilishiga to‘qnash kelamiz. Ruscha variant keng leksika bilan to‘lib toshgan, ya‘ni nafaqat qahramonlarning nutqida (Beytsda berilganidek), balki muallifning so‘zlarida ham. Ushbu o‘zgarish bilan tarjimon sivilizatsiyadan va umuman tashqi dunyodan yiroq bo‘lgan oddiy, o‘qimagan odamlar – Grimsholar turgan o‘ziga xos muhitni yaratgan.

Grimsho xotiniga qay tarzda savol berishiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bunda o‘ziga xos psixologik detal mavjud (Beyts asarlariga xos bo‘lgan o‘xshash psixologik “hiylalar”), Grimsho savolni shundoq qo‘yadiki, uning xotinida tanlash, ikki yo‘ldan birisini tanlash imkoniyati qolmaydi. Uning savollarida javob belgilab bo‘lingan va harakatlar cheklangan. Bu lahza tarjimon tomonidan hisobga olinmaydi, garchi Beytsni ajratib turuvchi aynan shunday detallar juda muhim va qiziqarlidir.

*-You manage?- he said. -Yes,- she said*<sup>37</sup>.

*- Senga tuz solaymi? – deb so‘radi u.*

*- Kerak emas, - dedi u*<sup>38</sup>.

Gavdalantirishni kuchaytirish uchun muallif istioradan bejiz foydalanmaydi:

*Then gradually the furniture had bitten into him, had got hold of him like drink, until it had become a sort of single-minded passion*<sup>39</sup>.

«Va asta-sekin mebel uni butunlay egallab oladi, uni mastlik singari so‘rib oladi va u yerda butun vujudini qamrab oladigan ehtirosga aylanadi»<sup>40</sup>.

<sup>36</sup> Бейтс Герберт. «Мёртвая красота» // Избранные рассказы. – Москва: Известия, 1990. – С. 181.

<sup>37</sup> Bates H.E. “The Beauty of the Dead” // English Short Stories of the 20<sup>th</sup> Century. – Москва: Радуга, 1988. – Р. 368.

<sup>38</sup> Бейтс Герберт. «Мёртвая красота» // Избранные рассказы. – Москва: Известия, 1990. – С. 181.

<sup>39</sup> Bates H.E. “The Beauty of the Dead” // English Short Stories of the 20<sup>th</sup> Century. – Москва: Радуга, 1988. – Р. 368.

<sup>40</sup> Бейтс Герберт. «Мёртвая красота» // Избранные рассказы. – Москва: Известия, 1990. – С.181.

“had bitten into him” istiorasi tarjimon berayotgan “so‘rib oladi” ekvivalentidan kuchliroqdir.

Gavdalantirish elementlaridan iborat muallifning ekspressiv istiorasi muvaffaqiyatli tarjima qilingan edi:

*...the countless pieces of china blooming in the dark and unopened cupboards like rows of everlasting flowers*

“... va bufetlarning qorong‘i tubida va idish javonlarining ochilmagan eshiklari ortida bo‘znochlari singari so‘nmasdan gullayotgan son-sanoqsiz chinni servislar”. “to finish” so‘ziga odatdagidan boshqa ekvivalent quyidagi gapda tanlab olindi:

*As he sat there finishing the pudding and he tea, Grimshaw heard the heavy front door open and swing to, and then quick feet mounting the doors*<sup>41</sup>. “Grimsho choy bilan pishiriqni tamomlayotgan edi, xuddi shu paytda oldingi katta eshik ochilib, chayqaldi va zinapoyada shoshqaloq oyoq tovushlari eshitildi”<sup>42</sup>.

“To finish pudding”ni o‘zgarishsiz – puding yeyishni tamomlash deb tarjima qilsa bo‘ladi. Tarjimon yana bir bor erkin tarjimadan foydalanib, qahramonlarning so‘zlarini litotani ishlatib tarjima qiladi. Litotaning vazifalaridan biri – bu gapda qandaydir-bir shubha asari (alovati)ni yaratishdir.

- *You ought to have a fire in here. I distinctly said that yesterday.*

- *She says she's warm enough*<sup>43</sup>.

*U unga issiq ekanligini, aytmoqda. Bu yerda biz "enough" so‘zi "issiq" so‘zining ma‘nosini kuchaytirayotganini ko‘ramiz – anchagina iliq, tarjimada esa, aksincha bo‘lib chiqadi.*

- *Bu yerda olov yoqish kerak. Kecha bu haqda sizga aytgan edim-ku.*

- *U unaqa sovuq emas shekilli, demoqda*<sup>44</sup>.

Badiiy asarni tarjima qilish tarjima faoliyatining eng murakkab turlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar orasida uslubiy vositalarni tarjima qilish muammosi dolzarb sanaladi<sup>45</sup>.

G.E.Beytsning “A Christmas Song”, “The Beauty of the Dead”, “How vainly men themselves amaze” novellalari va ularning tarjimalarini tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, har doim ham tarjimada muallif uslubining energetikasini, uning kuchini va ifodaliligini yetkazib bo‘lmaydi, shunday bo‘lsa ham har bir tarjimonning original (o‘ziga xos) topilmalari bor. Bunda biz bunday qiyin vazifani o‘z zimmasiga olgan tarjimonlarning ulkan ishlarini hech qanaqasiga kamsitmaymiz.

Ushbu ishning tahliliy qismi quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Ikki tilning tuzilmaviy farqi tarjimada qo‘shimcha qiyinchiliklarni keltirib

<sup>41</sup> Bates H.E. “The Beauty of the Dead” // English Short Stories of the 20<sup>th</sup> Century. – Moskva: Raduga, 1988. – P.369.

<sup>42</sup> Бейтс Герберт. «Мёртвая красота» // Избранные рассказы. – Москва: Известия, 1990. – С.182.

<sup>43</sup> Bates H.E. “The Beauty of the Dead” // English Short Stories of the 20<sup>th</sup> Century. – Moskva: Raduga, 1988. – P.368.

<sup>44</sup> Бейтс Герберт. «Мёртвая красота» // Избранные рассказы. – Москва: Известия, 1990. – С.182.

<sup>45</sup> Yo‘ldoshev U. Badiiy matnda qo‘llangan allyuziyalarni tarjima qilish strategiyalari (latifalar tarjimasi misolida) // Buyuk ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta‘lim va madaniyat. – Samarqand-Shanxay, 2021. – B.159

chiqaradi va ba’zida tarjimaning "haddan tashqari yuklanganligiga" olib keladi.

2. Barcha tarjimonlarning ishi o‘z topilmalari va yo‘qotishlariga ega, biroq baribir qiyosiy tahlilda "The Beauty of the Dead" novellasining L.Bespalova tomonidan bajarilgan tarjimasi g‘olib chiqadi.

3. Tarjimalarda biz tomondan aniqlangan nomuvofiqliklar ba’zan "The Beauty of the Dead" novellasi tarjimasidagi kabi oldindan, puxta o‘ylangan usullar natijasidir.

4. Uchala tarjimon ham asl nusxaning uslubiy vositalari, ya’ni: epitetlar, istioralar, taqqoslashlar, oksimoronlar va hokazolarni iloji boricha to‘liq yetkazishga harakat qilishgan.

Albatta, hech bir tarjimon “nuqsonlar”dan qutilishga muvaffaq bo‘lmagan, biroq badiiy tarjima bo‘yicha mutaxassis V.Golishevning hisoblashicha, har kim “birovning fikrini va hatto birovning iboralar tuzilishini rus tiliga qo‘shib yuboradi. Agar u buni qilmasa, demak u shunchaki noto‘g‘ri ish qiladi”<sup>46</sup>.

“*How vainly men themselves amaze*” hikoyasida deyarli hech qanday syujet yo‘q bo‘lsa-da, qahramonlarning tabiati, tashqi ko‘rinishi va xatti-harakatlarining rang-barang lavhalari mavjud. Quyidagi gap tarjimasining adekvatligi (mosligi)ni tahlil qiladigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash kerakki, “*The harshness of this episode had melted away*”, ya’ni “bu vaziyatning dag‘alligi g‘oyib bo‘ldi” (Abduvaxabova Umida tarjimasi) ifodaviy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan ibora tarjimada butunlay yo‘q bo‘lib ketadi, istiora saqlanmaydi va “hamma narsa avvalgidek edi” oddiy iborasi bilan almashtiriladi. Biroq, bu quyidagi gap bilan to‘ldiriladi, bu yerda inglizcha “*all tension gone*” (keskinlik tugadi) to‘ldirilib, "xuddi keskinlik niqobini tashlagandek" gapiga aylanadi.

Pelgreyv xonim bilan bo‘lgan munosabatlar haqidagi xotiralar faqatgina “*a brittle shadowiness from which all heat had strangely departed*” qoldirdi. Tarjimada biz “butunlay bug‘ga aylangan ehtirosdan qolgan rangsiz dog‘”ni o‘qiymiz – ifodali istiora, ammo u asl nusxaning obrazlilikini to‘g‘ri (mos) yetkazmayapti. Birinchi navbatda shuni ta’kidlash kerakki, “*a brittle shadowiness*” (nozik soya) tarjimaning “rangsiz dog‘”ga mos kelmaydi. Asl nusxada Xaydidan taralgan sovuqlikning soya bilan yoki hatto Pelgreyv xonimga nisbatan qolgan xiralik bilan taqqoslanishini aniq o‘qish mumkin, negaki inglizcha “*shadowiness*” “*shadowy*” so‘zining hosilasidir - 1) xira, 2) noaniq, g‘ira-shira, 3) noma’lum, sersoya, 4) ma’yus. Bundan tashqari, “*heat had strangely departed*” timsollashtiruvchi “butunlay bug‘ga aylangan ehtiros”ga qaraganda ifodalibroq. Asl nusxada “*strangely*” epiteti orqali yigitning his-tuyg‘ulari qanchalik tez o‘zgarganiga ajablanishi ham o‘qiladi. Tarjimada bu nyuans qoldirilgan.


Ushbu diagrammada G.Beyts tomonidan «How vainly men themselves amaze» hikoyasida ishlatilgan eng keng tarqalgan til vositalari ko‘rsatilgan.

Hikoyada qahramonlarning ma’lum fazilatlarini, ya’ni 14 ta epitet, 12 ta metafora va 6 ta antitezani tasvirlash uchun turli xil **stilistik vositalardan** foydalaniladi. Bundan tashqari, **sintaktik vositalardan** – 24 ta vositadan

---

<sup>46</sup> Гольшев В. «Ты находишься при хорошем деле...». Интервью В.Гольшева С. Гандлевскому в рубрике «Трибуна переводчика». // «Иностранная литература», № 4, 1997. – С. 249.

foydalanish keng tarqalgan, masalan, hikoya aytuvchining murakkab jumalari, Xeydi enaga nutqidagi oddiy jumlar uning samimiyligi va pokligiga urg‘u beradi va Pelgreyv xonimning javoblarida inversiya, undov jumalari va buyruq ohangidan foydalanish uning ziddiyatli va qattiq tabiatini ochib beradi.



**1-rasm. How vainly men themselves amaze**

Anafora, epifora, gradatsiya, leksik takrorlash kabi **tilning tasviriy vositalaridan** foydalanish – 18 ta vosita – tavsifni “jonlantirishi”, ushbu vositalar tufayli o‘quvchining tasavvurida aks etadigan manzaraning haqiqiy tasvirini yaratishi, psixologik muhit orqali hissiy taassurot qoldirishi mumkin. **Rang ramziyligi** chuqur ma’noni anglatadi, qahramonning hissiy holatini, asarda bo‘lajak voqeani yoki xarakterning xususiyatlarini ochib beradi.

Shunday qilib, G.E.Beyts hikoyalari tarjimalarining tahlili natijalarini sarhisob qilib, ma’lum xulosalarga kelishimiz mumkin: garchi ular umuman olganda ekspressivlik va ifodalilikni saqlab qolishsa-da, shunga qaramay, ba’zi badiiy detallar tarjima paytida o‘zlarining obrazlilik va hissiy bo‘yoqlarini saqlamaydilar, bu esa ba’zi bir tarzda rus tilida so‘zlashadigan o‘quvchi tomonidan tarjimaning o‘qilishi darajasiga ta’sir qiladi.

## XULOSA

1. Mashhur ingliz nasrnavigi va novellachi Gerbert Ernst Beyts XX asr ingliz modernistlari pleyadasiga mansub bo‘lib, 24 ta roman, 9 jildlik esse, 30 ta hikoyalar to‘plamini o‘z ichiga olgan asarlari bilan mashhur bo‘lgan. Beyts ko‘plab romanlar, shu jumladan, qishloqqa oid romanlari, harbiy hikoyalar, qisqa qissa va hikoyalarni (uch yuzga yaqin) yozgan bo‘lib, nihoyatda muvaffaqiyatli va tasniflanmaydigan "Mayning yoqimli kurtaklari" romani, keyinchalik mashhur teleserialga aylangan Larkinlar oilasi haqidagi beshta romanning birinchisi ularning eng yuksak cho‘qqisi bo‘lgan. Beytsning ilk to‘plamlari quyidagi xronologiyada alohida xilma-xillik yaratadi: “Qora tanli bokschi” (1932), “Tasavvurli ayol” (1934), “Kesib tashlagin-da, yana kelgin” (1935), “Uchar echki” (1939); 40-50-yillarda “Kelin Ivensfordga kelmoqda”, “Oh, bu baxtli qishloqlik”,

“Qirmizi qilich”, “O‘rmondagi qip-qizil yalanglik” to‘plamlari va boshqalar nashr etilgan. Ilk hikoya va romanlari yuqori baho olgan: «Ikki singil» (1926), «Brakoner» (1935); «Ayollar uyi» (1936); «Mening amakim Saylas» (1940); «O‘lik go‘zallik» (1941). Urush paytida u “Qanday qilib jasur bo‘lish kerak” (1943) va “Dunyoning eng buyuk odamlari” (1942) to‘plamlarida to‘plangan qisqa hikoyalarni yozgan.

2. G.Beytsning hikoyalarida Angliyaning sodda va halol do‘kon egalari, mehnatsevar dehqonlar, eskirgan hovli-joylarning yashovchilari kabi qishloq vakillari tasvirlanadi. Beytsning hikoyalarida na tarixiy shaxslar, na bir alohida muhim tarixiy voqealar, na ijtimoiy harakatlar bor, biroq Beytsga xos kundalik hayot haqiqiylikining o‘ziga xos betakror sharoiti mavjud. Shu bilan bir vaqtda, yozuvchi hikoyalarning har bir qahramoni, ularni o‘rab turgan sharoit va ularni qiynayotgan fikrlar noyob bo‘lgani kabi individual, haqiqiydir. Ularning shaxsi ularning ijtimoiy mavqeini ko‘rsatadigan harakatlari (ishlari) orqali tasvirlanadi.

3. Gerbert Beytsning aksariyat asarlari asosini nizo, ya‘ni qarama-qarshi tomonlarning o‘zaro ziddiyatlarida ifodalangan kelishmovchilik: turli qadriyatlar, dunyoni idrok etish sababli qahramonlar o‘rtasidagi nizo; shaxs va jamiyat o‘rtasidagi nizo, turli avlod vakillari o‘rtasidagi nizo tashkil etadi.

4. Beytsning barcha asarlari abadiy umuminsoniy qadriyatlar masalalarini yoritgan holda badiiy asarda estetik, hissiy, kognitiv va ma‘naviy tajribani yetkazadi. Umuminsoniy qadriyatlar chuqurroq, falsafiy nuqtayi nazardan inson zotining umummilliy, siyosiy, ma‘naviy va boshqa qiziqishlaridan xoli bo‘lgan umumiy manfaatlarini ifoda etishi bilan farqlanadi. Jahon hamjamiyati tomonidan baholangan umuminsoniy qadriyatlarga hayot, erkinlik, baxt, tinchlik, adolat, sevgi, do‘stlik haqidagi tushunchalar kiradi.

5. G.Beyts nozik va e‘tiborli psixolog bo‘lib, insonlarda insoflilik, hamdardlik, muhabbatga bo‘lgan qobiliyatni qadrlaydi. U sof, halol, olijanob insonni ulug‘laydi va insonning ma‘naviyatsizligi, bemazaligi va manfaatparastligini masxara qiladi. Yozuvchi jamiyat, atrof-muhit va insonning uning zararli ta‘siriga qarshi turishni istamasligi bilan bog‘liq bo‘lgan inson qalbini nobud qiladigan sabablarni ko‘rsatadi.

6. G.Beytsning ko‘pgina hikoyalarda qahramonlarning hayoti tashvishlar va kundalik mayda-chuyda narsalarda ularning yonidan o‘tib ketganida, inson qurshovining ta‘siri ostida shaxsning tanazzulga uchrashi mavzusi ochib beriladi. Shuningdek, u xasislik, tamagirlik, ziqnalik, jismoniy befarqlik va ma‘naviy qashshoqlik mavzusiga ham to‘xtaladi. Beytsning asarlarida kundalik voqealar prizmasi orqali ijobiy shaxslararo munosabatlar yaxshi ochib beriladi. Hammasidan ko‘ra, muallif ko‘proq sevgi haqida bir-biriga nisbatan yuqori hissiy ijobiy baho berishda ifodalanadigan shaxsiy o‘zaro munosabatlarning eng murakkab ko‘rinishi sifatida gapiradi. Sevgi nafaqat qarama-qarshi jinsga, balki ota-ona, bolalar, boshqa oila a‘zolari bilan munosabatlarda, shuningdek, jonsiz predmetlarga (Vatanga, sevimli mashg‘ulotga va hokazolarga) bo‘lgan munosabatda ham ifodalanadi. Beytsning ko‘pgina asarlari sevgi mavzusiga bag‘ishlangan. Odamlarning o‘zaro ishonchi va bir-birlarini tushunishi, xayrixohlik va g‘amxo‘rlik, faol o‘zaro yordam va o‘zaro manfaat, samimiylik va

his-tuyg'ularning beg'arazligi bilan ajralib turadigan do'stlik mavzusiga alohida urg'u beriladi. Beyts asarlarida yolg'izlik insonning qiyin va og'ir kechinmasi sifatida tasvirlanadi. Insonning jamiyatdagi yolg'izligi muammosi qahramonlarning hayotga bo'lgan tamoyillari va idealistik qarashlarini buzadigan turli aspektlar nuqtayi nazaridan yoritiladi.

7. G.E.Beytsning asarlarida leksik, fonetik, sintaktik va frazeologik kabi turli xil ifodali vositalar uchraydi. Uslubiy vositalar orasida epitet, istiora, o'xshatish, oksimoron, kinoya, mubolag'a, kichraytirish, anafora va boshqalar G.Beytsning ijodida eng mashhurlaridir. G.Beyts ifodali vositalar yordamida ajoyib obrazlar, portretlar, hissiyotlar va manzaralarning nozik tuslarini tasvirlashga muvaffaq bo'ldi. Qahramonlarni tasvirlashda uslubiy vositalar qissaning ekspressivligi va emotsional-ekspressivligini oshirgan holda, ularning his-tuyg'ulari, kayfiyati, ichki holatini ko'rsatadi. G.Beyts tabiatning tasvirlanishini "jonlantiradigan", tabiatning ifori, bo'yoqlari va sadolarini mohirlik bilan yetkazadigan tovushli ifoda vositalaridan keng foydalanadi. U tasvirlashlarda, tafsilotlarni tanlashda tejamli, voqeaga (uning hikoyalari ko'pincha "syujetsiz") yoki u keltirib chiqargan hissiyotlarga alohida urg'u bermaydi.

8. Yozuvchiga mazmunga chuqurroq ma'no beradigan va asarlarning obrazlari, xarakterlari, joylari, voqealari va g'oyalarini tasvirlashda muhim rol o'ynaydigan rangli ramzlardan foydalanish juda yoqadi. Beyts uslubining o'ziga xos xususiyati shundaki, tasvirlashning har bir detali, har bir narsa sababiy-oqibatiy bog'lanishga ega, barcha narsa hikoya paytida aniqlanadigan yashirin ma'noga ega. G.Beytsning asarlarida interyer va landshaftning tasvirlanishi o'quvchiga hikoyadagi voqealar o'rtasidagi bog'lanishni topishga yordam beradi, qahramonlarning ichki holatini, hissiyotlarini, kechinmalarini tavsiflaydi va o'quvchini keyingi voqealarga tayyorlaydi.

9. Beyts asarlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, qissa asosan muallif nomidan olib boriladi, to'g'ridan-to'g'ri nutq esa butun syujetning taxminan 50 foizini tashkil qiladi. Beytsning uslubi – bu ijtimoiy ahvol, qahramonlarni o'rab turgan tarixiy voqealarni ajoyib aniqlik bilan takrorlaydigan ifodali uslubiy vositalarga boy oddiy gaplardir. Hikoyachining nutqidagi ergashgan qo'shma gaplar jamiyatning bir avlod bo'lgan turli ijtimoiy qatlamlariga mansub vakillaridan iborat qahramonlarning to'g'ridan-to'g'ri nutqidagi oddiy jummlarning ortiqchaligiga qarshi ishlatiladi.

10. Badiiy asarni boshqa tilga tarjima qilishda so'zma-so'z aniqlik va muallif uslubini saqlab qolish deyarli yetarlicha darajada qiyinlashadi. Tarjima tarixida bu ikki tamoyil – "so'zma-so'zlik" va "erkinlik" doimo birga mavjud bo'lgan, faqatgina har bir tarjimon o'ziga yaqin bo'lganini individual ravishda tanlaydi. Tarjimon o'zida pragmatik, semantik va uslubiy adekvatlikni birlashtiruvchi maqbul variantni yaratishi kerak, chunki ma'noning so'zma-so'z ko'chirilishi tarjima qilinayotgan matnda kommunikativ intensiyani buzib ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, ikki til o'rtasidagi tuzilmaviy farq tarjimada qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va ba'zida tarjimaning "haddan tashqari yuklanganligiga" olib keladi. Tarjima qilinayotgan matnda asl pragmatik potensialni takrorlash qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish yoki ortiqchalarini

tushirib qoldirish, matn ma'nosini o'zgartirish – umumlashtirish va konkretlashtirish va hokazolardan foydalanish bilan mumkin bo'ladi.

11. R.Bespalova, N.Kolpakov, D.Smironovlar G.Beyts asarlarining eng mashhur tarjimonlari hisoblanishadi. Barcha tarjimonlarning ishi o'z topilmalari va yo'qotishlariga ega, lekin baribir qiyosiy tahlilda "*The Beauty of the Dead*" novellasining L.Bespalova tomonidan bajarilgan tarjimasini g'olib chiqadi. Dissertatsiyada aniqlangan nomuvofiqliklar ba'zan "*The Beauty of the Dead*" novellasi tarjimasidagi kabi oldindan, puxta o'ylangan usullar natijasidir. Uchala tarjimon ham asl nusxaning uslubiy vositalari, ya'ni: epitelar, istioralar, taqqoslashlar, oksimoronlar va hokazolarni iloji boricha to'liq yetkazishga harakat qilishgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО  
НАСЛЕДИЯ «ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

**АБДУВАХАБОВА УМЕДА МАМАТЮСУФОВНА**

**ПРАГМА-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ОПИСАНИЯ  
ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ОРИГИНАЛЕ И ПЕРЕВОДАХ  
ПРОИЗВЕДЕНИЙ ГЕРБЕРТА Э. БЕЙТСА**

**10.00.06 - Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за номером B2021.2.PhD/Fil1348.

Диссертация выполнена в Международном университете туризма и культурного наследия «Шёлковый путь».

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

Научный руководитель:

**Насруллаева Нафиса Зафаровна**  
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

**Киселев Дмитрий Анатольевич**  
доктор филологических наук, доцент

**Эгамова Мастура Хакимжоновна**  
доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Ведущая организация:

**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится «31» мая 2023 года в 10 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Бустонсарой, 93. Тел.: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 61498). Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Бустонсарой, 93. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан «18» мая 2023 года  
Протокол реестра рассылки за № 73 от «18» мая 2023 года



**И.М.Тухтасинов**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, профессор

**Г.К.Мирсанов**

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

**Ш.С.Сафаров**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом литературоведении объектом научных изысканий всё чаще становится круг проблем, связанных с художественным описанием философии жизни и существованием человека в определённую историческую эпоху в конкретном языковом социуме. В этом аспекте художественное изображение смысла жизни человека и человеческих ценностей приобретает особую актуальность, поскольку каждое художественное произведение формируется вокруг человека, его жизни, идей и желаний. Объектом описания любого художественного произведения является человек, даже если героями являются животные или другие предметы окружающего мира, метафорически изображающие человека и направленные на человеческое восприятие.

В ведущих мировых научно-исследовательских школах особое внимание уделяется изучению художественного замысла произведения с постановкой главного вопроса о смысле человеческой жизни, взаимоотношениях и стремлениях человека в соответствии с его ценностями, в частности, духовными. Особую значимость приобретают проблемы, связанные с описанием отдельных личностей, обособленных от общества и непохожих на других людей, отличающихся специфичным мышлением и особыми пристрастиями. Для корректного толкования авторского слова необходимо ознакомиться с оригиналом произведения, что позволит не только понять, но и ощутить ту или иную среду обитания. Этот процесс позволит детально и глубоко прочувствовать язык передачи эмоций, экспрессивность и идейный смысл произведения.

Массовое приобщение людей к чтению художественной литературы, в том числе зарубежной, стало приоритетным направлением в независимом Узбекистане, ибо чтение иностранной литературы, несомненно, расширяет кругозор человека, знакомит читателя с определённой исторической эпохой, жизненным укладом, человеческими ценностями и национальными стереотипами конкретного языкового сообщества. В связи с этим, перевод иностранной художественной литературы приобретает особую актуальность в настоящее время. Художественный перевод представляет собой плодотворное поле для исследований, а сравнительный анализ переводов является тем средством, которое может помочь в выборе наиболее адекватных путей перевода.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных рядом нормативно-правовых актов, таких, как Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-1875 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков» от 10 декабря 2012 года, Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 «О дополнительных мерах

